

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

Tong Yulduzi

2013-yil 30-sentabr
N:39 (66944)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN — 2010-6092

USTOZLAR MEHRIDAN DILLAR NURAFSHON

SE
ISTE
ILMGA
MASHQQA
Arastu



Ustoz! Uning siyмосi shunchalar mukammal, atvori shunchalar mufassalki, bamisoli dunyoning bor zakovati-yu mehr-mahorati ana shu jussaga jo aylangandek. U shunchalar tabarruk zotki, ta'rifini so'zlab, ado qilmoq dushvor. Bu ezgulikda betimsol insonlarning aqli, zakovati ilmga bo'lgan chanqog'imizni qondirsa, mehri dillarimizni nurafshon aylaydi.

Shuning uchun ham ularni doimo ardoqlaymiz, e'zozlaymiz.

O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ana shu sharafli, ayni damda o'ta mas'uliyatli kasbni ardoqlab kelayotgan ustozlarimizdan biri Marhabo opa Qurbonova bilan uchrashdik, bolalik xotiralari, orzulari haqida suhbatlashdik.

Davomi 2-betda



Gazetamizning o'qituvchi va murabbiylarga bag'ishlangan ushbu MAXSUS sonini minnatdor shogirdlaringizdan xushbo'y, ajib bir guldasta sifatida qabul qiling, aziz ustozlar!



ITALIYADA KUYLANGAN «DILXIROJ»

Joriy yilning 9-15-sentabr kunlari Italiyaning Venetsiya shahrida «VI xalqaro san'at festivali» kundaligidan o'rin olgan «Orpheus in Italy» tanlovi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizning umidli yoshlaridan biri Andijon viloyatining Jalaquduq tumani-dagi 1-umumta'lim maktabining 8-sinf hamda 18-Bolalar musiqa va san'at maktabining dutor va estrada sinfi o'quvchisi Maftunabonu Mahmudjonova ham ishtirok etdi.

O'zbek milliy qo'shiqlarimizdan «Dilxiroj»ni kuylab, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritib qaytdi. Betakror iste'dodi, san'ati orqali O'zbekiston nomini yana bir bor dunyoga tanitgan Maftunabonuni ko'pimiz sonli o'quvchilarimiz nomidan samimiy qutlaymiz! (Gazetamizning navbatdagi sonida u bilan yaqindan tanishasiz).



USTOZLAR MEHRIDAN DILLAR NURAFSHON

(Boshi 1-betda)

Mana, o'n yildirki, Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabiga rahbarlik qilib kelayotgan Marhabo opaning o'quvchilik yillari ham aynan shu dargohda o'tgan ekan.

Asli o'qituvchilar sulolasidan bo'lgan ustozning onasi ham, ammalari ham shu kasbni ardoqlab, elning e'zoz-u ehtiromiga sazovor bo'lishibdi. Adabiyot ixlosmandi bo'lgan buvisiga ammalari o'qib bergan «O'tkan kunlar», «Choliqushi» kabi asarlarni tinglab, ulg'aygan qahramonimizning qalbida ham bolalikdanoq adabiyotga, she'riyatga havas uyg'ona bordi. Mana shunday durdona asarlar jamlangan kat-ta kutubxonaga ega bo'lish uning eng ezgu orzusi edi.

– 5-sinfda o'qib yurgan kezarimda bo'lib o'tgan bir voqea sira yodimdan chiqmaydi, – deya xotirlaydi Marhabo opa. – Sinfdan tashqari darsda o'qituvchimiz aytgan topishmoqlarga tezkorlik, zukkolik bilan javob topayotgandik. Ustozimiz, endi o'zingiz ham topishmoq aytib ko'ring-chi, dedilar. Sinfdoslarim bir-birlariga gal bermay, so'zlay ketishdi. Topishmoq aytilish navbati menga kelganda, Maxtumqulning Durdi shoir bilan aytishuvidan quyidagi she'riy topishmoqni keltirgandim:

U nimadir qizil va ko'k o'sadi?

U nimadir oyog'i yo'q bosadi?

U nimadir yetti o'lka kezadi?..

Meni diqqat bilan tinglab turgan muallimamiz bu topishmoqni qayerda o'qiganim bilan qiziqib qoldilar. Chunki u paytlarda Maxtumquli singari adabiyot namoyandalarning hayoti va faoliyati maktab darsliklariga kiritilmagan edi-da. Shuning uchun,

U ekindir, qizil va ko'k o'sadi,

U ilondir, oyog'i yo'q bosadi,

U cho'pondir, yetti o'lka kezadi,

deya topishmog'inning javobini ham o'zim aytganman. Hozirda esa o'quvchilar adabiyot darslarida nafaqat o'zbek adiblari, balki jahon adabiyoti namoyandalari ijodi bilan ham yaqindan tanishish imkoniga egalar...

Chindan ham bugungi yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga har qancha havas qilsak arziydi. Ko'hna va boy tariximizga nazar tashlar ekanmiz, buyuk ajdodlarimiz, shavkatli ota-bobolarimiz, o'z davrining ma'nan yetuk insonlari el-yurt, millat kelajagini o'ylab, birinchi galda ta'lim-tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratganlarining guvohi bo'lamiz. Ezgu maqsadlarga yo'g'rilgan bu an'ana bugungi kunda ham

davom ettirib kelinayotganini, Istiqlolning dastlabki yillaridanoq ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, tizimda qator islohotlar o'tkazilayotgani misolida ham ko'rishimiz mumkin.

MUNOSIB JAVOB

Bunday g'amxo'rliklarga nafaqat o'quvchi-yoshlarimiz, balki ustoz-murabbiylarimiz ham munosib javob qaytarishga intilishyapti, tinimsiz izlanib, bilim va mahoratlarini oshira borishyapti. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi alohida xizmatlari uchun munosib taqdir-lanishyapti. Bugungi kunda 1081 nafar o'g'il-qiz tahsil olayotgan mazkur bilim dargohi misolida oladigan bo'lsak, o'quvchilarga saboq berib kelayotgan 72 nafar o'qituvchining qariyb yarmi oliy toifali, yigirmaga yaqini «Xalq ta'limi a'lochisi», to'rt nafari davlatimizning yuksak mukofotlariga munosib ko'rilgan. Maktab direktori Marhabo opa Qurbonova Prezidentimiz farmoniga muvofiq «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan bo'lsa, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Rahima Mirxolliqova «Yilning eng faol fan o'qituvchisi» ko'riktanlovidagi g'olibligi uchun Yurtboshimiz sovg'asi – yengil avtomobil bilan taqdirlanib, hamkasblari-yu shogirdlariga ibrat bo'lgan.

Xalqimizda «Shogird ustozga qarab bo'y cho'zadi» degan ajoyib naql bor. Mazkur ilm maskani o'quvchilari ham ustozlaridan andoza olib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishyapti.



Boburjon Mutalov kimyo fani bo'yicha respublika fan olimpiadasida 1-o'rinni egallab, Toshkent tibbiyot akademiyasiga imtiyozli qabul qilindi. Azizjon Erkinjonov taekvando bo'yicha Janubiy Koreyada o'tkazilgan jahon chempionatida bronza medalini qo'lga kiritib, maktabi, tumani, qolaversa, yurtimiz sharafini munosib himoya qilib qaytdi. Saida Ortiqboeva «Yangi avlod» respublika bolalar ijodiyoti festivalining sovrindori bo'ldi. Fan, ta'lim, san'at, sport sohaslarida ko'plab yutuqlarga erishgan bitiruvchilari o'rnini egallab borayotgan iqtidorli o'quvchilaridan ham ustozlarning umidi katta.

Fidoyi ustoz Gulchehra Mutalova boshqarib kelayotgan drama to'garagi ham ko'plab iste'dodlarni kashf etmoqda. Bu yil 1-sinfga qabul qilingan 130 nafar kichikintoylarning o'qituvchilari – Sayyora Raimjonova,



Dildora Abdurahmonovanning ingliz tilidan berayotgan saboqlarini jonquloqlari bilan tinglashlarini bir ko'rsangiz edi... 2-4-sinf o'quvchilari ham uka va singillaridan ortda qolmaslik uchun maktab qoshidagi to'garaklarga qatnab, xorijiy tillarni puxta o'rganishyapti. 5-7-sinf o'quvchilaridan ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan maxsus sinf tashkil qilingani ham intiluvchan yoshlarimiz uchun ayni muddao bo'ldi.

Kelajagimiz me'morlari bo'lgan aziz ustozlar, Siz ilm nurlari ila shogirdlarining ong-u shuurini nurafshon etuvchi kitobsiz, hayot yo'llarini yorituvchi beminnat oftobsiz! Shogirdlaringiz, farzandlaringiz baxtiga doimo sog' bo'ling, ikki dunyo saodatidan bahramand bo'ling!

Feruza JALILOVA

XUSHXABAR

Mustaqilligimizning 22 yilligi bayrami arafasida maktabda yana bir ajib xushxabar tarqaldi. Ta'lim maskanining jonkuyar rahbari Marhabo opa Qurbonova davlatimizning yana bir yuksak mukofoti – «El-yurt hurmati» ordeniga sazovor bo'ldi. Ustozni qutlagani ko'plab do'st-u qadrdonlar, shogirdlari kelishdi. Hatto opaning bog'chadagi ilk tarbiyachisi Baxti opa Mirzayeva ham kelib, qahramonimizning bolaligi haqida so'zlab berdi. Uning xotirlashicha, Marhabo opa go'dakligidanoq boshqa tengdoshlaridan ajralib turar ekan. Barcha kichikintoylar o'yinchoqqa talpinishsa, jajji Marhabo javondagi kitoblarga qo'l cho'zar, o'z tilida allanimalarni o'qiyverarkan...

Bo'lar bola boshidan, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Bolalikda qilingan sof niyatlar, beg'ubor orzular, albatta, ijobat bo'ladi, deyishadi. Bolaligida katta kutubxonasi bo'lishini orzulagan Marhabo opaning ham niyatlari ushaldi. Bugun ustozning mingdan ziyod kitoblar joy olgan katta, shaxsiy kutubxonasi bor. Ular orasidagi bolaligidan yiqqan kitoblari opa uchun yanada qadriroq. Volidai muhtaramasi kasbini davom ettirib kelayotgan uch nafar farzandlari uchun bu bitmas-tuganmas xazina. Olti nafar kichikintoy nabiralari esa kutubxonaning bo'lajak a'zolaridir.

MUALLIM UCHUN BAXT NIMA?

Tolibi ilmlar saodatiga guvoh bo'lish, ularning hayot yo'llarini ziyo nurlari bilan yoritayotganini his qilish, kamolini ko'rish! Ustozlarimiz hayotiga guvoh bo'lib, qalb kechinmalariga oshno tutinib, chiqargan xulosamiz shunday!

Bu jihatdan ham Marhabo opa baxtli ustozlar sirasiga kiradilar. Tuman miqyosidagi fan olimpiadalarida faxrli o'rinlarni egallab, viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan 43 nafar o'quvchilarini poytaxtga – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati binosiga senatorlar bilan uchrashuvga olib kelganlarida, bu baxtning sururini yanada chuqurroq his qilgan bo'lsalar, ajabmas...

Daryodil ustoz, fidoyi rahbar, ibratli xonadon sohibasi, mehribon ona, suyuqli buvi, bir so'z bilan aytganda, zamon bilan hamnafas ayol – Marhabo opa Qurbonova orqali yurtimizdagi barcha o'qituvchi va murabbiylarni ayyom bilan qutlab, ularga qarata shunday degimiz keldi:



SIZGA AY TAR SO'ZIM BOR

Xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritayotgan tengdoshlarimga havasim keladi. Bunday muvaffaqiyatlar aziz ustozlarimizning mehnatlari, zahmatlari samarasi ekanligini yaxshi bilaman. Bu tabarruk zotlar shogirdlarining yutuqlaridan qanchalar quvonishadi-ya?!

Maktabimizdagi eng jonkuyar o'qituvchilardan biri Adashvoy aka Sulaymonqulov ham biz o'quvchilarni hamisha ulkan marralar sari intilishga undaydilar. Bir necha yillardan buyon algebra va geometriya fanlaridan saboq berib kelayotgan ustozimiz bizga hayotiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatishni ham kanda qilmaydilar. Biz ham o'qituvchimizning so'zlarini ikki qilmaslikka harakat qilmoqdamiz. Ba'zan eng to'polonchi bolalarning ham «Adashvoy domla kelayaptilar, o'zingizni tutib oling», deya bir-birlarini tartibga chaqirishayotganini eshitib qolaman...

Bu aziz ustozimizni maktabimizning yuragiga o'xshataman. Bu mehdaryo insonni bayram bilan qutlab, maktabimiz o'quvchilari nomidan minnatdorlik bildiramani!

Zuhra NABIYEVA,

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 2-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

SHAROFAT OPA NING «KAMERASI»

Birinci o'qituvchimiz Sharofat opa Sharipova bizning nafaqat maktabda, balki uyda, ko'cha-ko'ya ham tartibli, intizomli bo'lishimizni istar edilar. Vaqtni behuda o'tkazmasligimizni, ko'chada kamroq to'p tepishimizni tayinlardilar. Va so'zlarining oxirida «Mening hamma joyga o'matib qo'rgan kuzatuv kameralarim bor, sizlarni har doim nazorat qilib turaman», derdilar ko'rsatkich barmoqlarini silkitib. Biz esa ishonmaganday bir-birimizga qarab qo'yardik...

Bir kuni Sharofat opa dars tayyorlamagan sinfdoshimizni biroz koyigach:

– Seni nimaga dars tayyorlamay kelganingni yaxshi bilaman, kecha kechki payt ko'chadan beri kelmading, – dedilar. U esa hayron bo'lib:

– Voy, ustoz, ko'chada o'ynaganimni kamerangizdan ko'rdingizmi? – dedi...

Shu tariqa barchamizni turli usullar bilan tartib-intizomga chaqirgan, fanlarga qiziqтира olgan ustozimizdan bugun juda-juda minnatdormiz. Ular tufayli «Bilimlar bellashuvi» kabi turli tanlovlarda yutuqlarga erishib, kelajagimizga mustahkam poydevor hozirlab bormoqdamiz. Zero, boshlang'ich ta'limni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining yuqori sinflarda egallaydigan bilimlari ham puxta bo'ladi.

Bejizga, bizga harf o'rgatgan birinchi muallimning saboqlari o'mini hech narsa bosolmaydi, deysishmaydi-da!

Abdumalik ABDURAHMONOV,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 9-maktabning 5-sinf o'quvchisi



BAYRAMINGIZ MUBORAK!

Men Piskent tumanidagi barcha o'quvchilar va ota-onalar havas qiladigan 1-umumta'lim maktabining 5-«Ye» ixtisoslashgan sinfida tahsil olaman. Shunday ulug' maskanda mehribon ustozlardan fan sirlarini puxta o'rganayotganimdan faxrlanaman.

Ertaga yurtimizda 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni keng nishonlanadi. Ushbu qutlug' sana munosabati bilan mamlakatimizdagi barcha ustozlarni kasb bayramlari bilan samimiy muborakbod etaman. Baxtimizga mehdaryo, qalbi qaynoq murabbiylarimiz sog' va omon bo'lishsin!

Maftuna ATAMURODOVA

Bizga maktub yo'llabsiz...

TASHAKKUR BILDIRAMAN

Ta'lim maskanimizda puxta bilim olishimiz uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Ko'plab tengdoshlarim kabi men ham barcha fanlardan a'lo baholarga tahsil olyapman.

Maktabimizda o'quvchilarning darslarni yaxshi o'zlashtirishlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning davomatini maktabimiz rahbari T.Yunusovning o'zlari nazorat qilib turadilar.

Fursatdan foydalanib, bizga ta'lim-tarbiya berayotgan barcha mehdaryo ustozlarimga tashakkur aytaman.

Dildora TOSHQULOVA,

Jizzax shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

MUQADDAS DARGOH

Maktab! Bu muqaddas dargoh yosh avlodga ziyo ulashadi. Hayot saboqlarini o'rgatadi, murg'ak qalblarda Vatan tuyg'usini shakllantiradi. Men ham ana shu yosh avlod safidan joy olgan baxtli o'quvchilardan biriman. Ta'lim maskanimda

bilim ziyosidan bahramand bo'lib, ulg'aymoqdaman.

Tarixni o'rganar ekanman, ajdodlarimizning ilm olish yo'lidagi mashaqqatli hayoti ko'z o'ngimda jonlanadi va bugungi mustaqil yurtimizda, keng va yorug' sinf xonalarda ta'lim olayotganimdan faxrlanaman.

Mehribon ustozlarimiz bizga ta'lim-tarbiya berishadi, hunar o'rgatishadi. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda tikish, to'qish to'garaklariga qatnaymiz. Men kelajakda tilshunos bo'lmoqchiman. Ustozlarim mehnatini oqlab, mustaqil Vatanim ravnaqiga o'z hissamni qo'shmoqchiman.

Oksana FRALOVA,

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

SIZLARGA TA'ZIM

Inson zoti borki, unga bilim va ma'rifat dunyosi sari yo'l ochib bergan, qalbiga yuksak insoniy fazilatlarni jo etgan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi. Umrimizning mazmunli o'tishida, hayotda o'z o'rnimizni topishimizda bu mehdaryo insonlarning o'rni beqiyosdir.

Men bugun mehribon va talabchan ustozlarimning berayotgan ta'lim-tarbiyalari, biz o'quvchilar uchun chekayotgan mashaqqatlarini ich-ichimdan his etib, ularga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman.

Bayramingiz qutlug' bo'lsin, aziz ustozlar!

Murod JO'RAYEV,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
57-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



Z.MO'MINOVA chizgan rasmlar.



YONIMIZDAGI ODAMLAR

Oramizda shunday tabarruk insonlar borki, ularning bosib o'rgan hayot yo'llari insonlar yodida bir umrga muhrlanib qoladi.



O'z kasbining fidoyilaridan biri Sultonali Abdurahimov ham ana shunday insonlardan biri. U 1947–48-yillarda Marg'ilon shahridagi ikki yillik institutning til va adabiyot fakultetini tamomlab, yo'llanma bilan Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Toqchiyon qishlog'ida joylashgan maktabda o'zbek tili va adabiyot fanidan o'quvchilarga saboq bera boshlaydi.

Keyinchalik Marg'ilonga qaytib, «Yo'rmado'z» mahalla hududidagi 15-o'rta maktabda, so'ngra «Maorif» mahallasidagi 14-o'rta maktabda o'z faoliyatini davom ettiradi. Intiluvchanligi, tashabbuskorligi, yangilikka chanqoqligi bois nafaqat o'zi ishlayotgan maktabda, balki shahardagi hamkasblari orasida ham obro'-e'tibor qozongandi.

51 yillik tajribaga ega bo'lgan ustoz yosh o'qituvchilarga, ilmga chanqoq o'quvchi-yoshlarga bilim berishni, yo'l-yo'riq ko'rsatishni o'zining muqaddas burchi, deb bildi. Shuning uchun ham uni barcha g'amxo'r va mehribon ustoz, yaqin maslahatdosh sifatida hurmat qiladi.

– O'qituvchilik kasbim bilan faxrlanam, – deydi Sultonali ota Abdurahimov. – Chunki shu kasb orqali el orasida e'tibor, izzat-hurmat topdim.

Sultonali ota hozir 87 yoshda. Faxriy pedagog, o'zi mehnat qilgan maktabga tez-tez borib, o'qituvchilarga maslahatlar, yo'l-yo'riqlar beradi, turli tadbirlarda ishtirok etadi.

Nuroniylar ustozimizning ko'p yillik samarali mehnatlari munosib baholanib, «Faxriy yorliq»lar, Diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

Shunday insonlar bilan zamondosh ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
mehnat faxriysi.

Suratda: Sultonali ABDURAHIMOV,
muallif olgan surat



Ustoz bilimi —

Ona va ustoz. Mehribon onalarimiz, talabchan ustozlarimiz shunday mo'tabar zotki, ularning o'gitlariga amal qilmaganlar komil inson bo'la olmaydi.

BILIM BULOG'IM — ONAM



– Men barcha ustozlarimni, qolaversa, onam – poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulbahor Soliyevani kasb bayramlari bilan tabriklayman.

Men ham kelgusida ular kabi yurtimga, elimga nafim tegadigan yaxshi inson, o'z kasbining ustasi bo'laman, – deydi mazkur maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Zilolaxon Soyibjonova.

Nima ham derdik, niyating yo'ldoshing bo'lsin, deymiz-da!

MAQSADLARI MUSHTARAK



Istiqolning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirib kelinayotgan tub islohotlar samarasini bugun yaqqol ko'rib turibmiz. Farzandlarimizning ta'lim-tarbiya olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi yo'lida yaratib berilayotgan sharoitlar haqida har qancha so'z yuritsak, oz. Quvonarlisi, sohada qo'lga kiritayotgan yutuqlarimiz nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham yuksak e'tirofga sazovor bo'layotir.

Kuni kecha O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 3-akademik litseyida 2013–2014-o'quv yiliga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda ham ana shu haqda so'z bordi. Yig'ilishda so'zga chiqqan litsey direktori Sirojiddin Jumanazarov barcha o'quvchi va ota-onalarni yangi o'quv yilining boshlanishi bilan samimiy qutlab, mamlakatimizda farzandlarimizning zamon talablari asosida ta'lim olishini ta'minlash yo'lida salmoqli ishlar amalga oshirilgani haqida to'lqinlanib so'zladilar. Shuningdek, litsey o'quvchilarining ota-onalarini bilim dargohida mehnat qilayotgan jonkuyar ustozlar hamda o'quv maskanida yoshlar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirdi.

– O'quv maskanimizda 850 nafar o'quvchi 10 ta guruhga bo'lingan holda malakali murabbiylardan saboq olishadi. Darslar, asosan, ingliz va rus tillarida, zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi, –

deydi direktor o'rinbosari Sayyora Hamidova.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bugun yurtimiz yoshlari Prezidentimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlardan oqilona foydalanib, Vatani, xalqi, ustozlari va ota-onasi oldidagi farzandlik burchini doimo his etishlari lozim. Tadbirda, shuningdek, litsey o'quvchilari Nizomda ko'rsatilgan qonun-qoidalariga bo'yusinishlari,

– Litseyimizda

«Elit» guruhi tashkil etilgan bo'lib, unda 30 nafar umumta'lim maktabini a'lo baholarga tugatgan iqtidorli, bilimdon, zukko o'quvchilar ta'lim olishadi. Fursatdan foydalanib, shunday bilimga chanqoq o'g'il-qizlarni tarbiyalagan Siz aziz ota-onalarga o'z minnatdorligimni bildiraman. Men ham ularga bor bilimimni berishga va'da beraman, – deydi 105-guruh rahbari **Boburjon Umarov.**



har bir o'quvchi darsga litsey formasida kelishi shartligi ta'kidlandi. Qizlarni erta turmushga berishning oldini olishda mahalla, oila hamda o'quv dargohlarining ham o'z mas'uliyati borligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchi va ota-onalar o'zaro hamfikir bo'lib, hamkorlikda ish olib borishlari zarur. Zero, har ikki tomonning ham maqsadlari mushtarak: yosh-avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni Vatanimizga, xalqimizga kerakli insonlar qilib tarbiyalashdir. Bu yo'lida barchamizga omad yor bo'lsin!

Mazkur litsey o'qituvchilarini, qolaversa, yurtimizdagi barcha ustoz-murabbiylarni kasb bayramlari bilan chin dildan muborakbod etamiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA



shogird ilmi

*Hayotda shunday insonlar bo'ladiki,
ular go'yo ziyo taratuvchi mash'alaga
o'xshaydi. O'tayotgan umri
hikmatlarga boy, amali ko'plarga
ibrat. Hikoyamiz qahramoni
Nizomiddin aka Xolqo'ziyev ham ana
shunday insonlardan biri.*

Nizomiddin aka 1959-yili Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida tavallud topdi. Yosh Nizomiddin maktabda o'qib yurgan kezaridayoq o'zining bilimi, namunali xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi bilan tengdoshlari, ustozlari e'tiboriga tushdi. Matematikaga bo'lgan iqtidori uni hozirgi Namangan davlat universitetining matematika fakultetiga yetakladi. Talabalik yillarida ham o'z ustida tinimsiz ishlab, oliygohni imtiyozli tugatdi va o'zi tug'ilib o'sgan Zarkent qishlog'idagi maktabda o'qituvchi bo'lib ish boshladi. Uzoq yillar maktabda faoliyat yuritgan mahoratli o'qituvchi shu tumanda joylashgan 12-davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatida faoliyat yuritdi. Ustozning matematikaga oid tayyorlagan 8000 dan ziyod test materiallari, 2000 dan ortiq turli ko'rgazmali qurollari va fazoviy jismlarning modellari, tarqatma materiallaridan hozirda ham



ILMGA BAXSHIDA UMR

darslarda foydalanib kelinmoqda.

Nizomiddin akaning ko'plab shogirdlari respublikamizning turli viloyatlarida o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. To'rt nafari fan nomzodlaridir. Fan olimpiadalarida qatnashgan shogirdlari borki, albatta, faxrli o'rinlarni olib qaytishadi. Oliy toifali pedagogning 2005-yilda nashrdan chiqqan «Uchburchakning medianasini o'rganish bo'yicha

uslubiy qo'llanma»si yurtimizdagi kasb-hunar kollejlari, maktab-internat, akademik litsey va umumta'lim maktablarida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

«Uchburchak medianasi haqida», «Konus kesimlari haqida uch masala» va «Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish bo'yicha» risolalari viloyat miqyosida ommalashgan. Bir necha bor viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi hamda viloyat pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutining «Faxriy yorliq»lari hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Fidokorona mehnatlari uchun 2010-yilda «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi» nishoni bilan mukofotlandi.

Hozirda ustozimiz «Matematikadan test ishlash texnologiyasi» mavzusidagi ilmiy risola ustida ish olib bormoqda. Tinib-tinchimas fidoyi muallim darsdan bo'sh vaqtlarida «Yosh matematiklar» to'garagini boshqaradi.

Nizomiddin akaning o'g'li Sardorbek ham ota kasbini davom ettiryapti. Zarkent kollejining aniq va tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.

Obod yurtini obod qiluvchi shunday fidoyi insonlar bor ekan, mustaqil yurtimiz yanada gullab-yashnayveradi.

Nurbek QIDIRALIYEV

O'XSHASAM, SIZGA O'XSHAY...



*Har bir insonni kamolotga eltuvchi
yo'lning boshida ustoz-murabbiy
turadi.*

Qaysi kasbda, qanday yoshda bo'lishingizdan qat'iy nazar, maktab ostonasiga qo'yilgan ilk qadam, doskadan ko'chirilgan ilk harf, ayniqsa, Sizni xuddi o'z otangiz, onangizdek kutib olgan. Sizga borlig'ini, mehrini baxshida etgan birinchi ustozingiz qalbingiz to'ridan chuqur joy olib, bir umrga muhrlanib qoladi. Yillar o'tgani sari ustozga bo'lgan mehringiz ummonga aylanadi. Chunki



Endilikda Gulchehra opaning o'zi ham faxriy ustozlarimizdan sanaladi.

Sizning murg'ak qalbingizda kitobga, ilmga havas uyg'otadigan, tafakkuringizni boyitadigan, tasavvuringiz ufqlarini kengaytiradigan inson, shubhasiz, birinchi ustozingizdir.

Birinchi ustoz haqida so'z ochdim-u, beixtiyor ko'z o'ngimda sochlari uzun, ko'zlari hamisha kulib turadigan, qadamidan o't chaqnaydigan birinchi o'qituvchim – Muazzam opa Hoshimovaning nurli siyмосi gavdalanadi. Ustozimning bag'ri kengligi, odamni o'ziga tortuvchi samimiy nigohi, dilga yaqin suhbatlari hanuz yodimda.

Inson ulg'aygani sari atrofidagi yaxshilardan andoza olib boradi. Men ham o'sha paytlarda bolalarga xos havas bilan ustoz bo'lishni niyat qildim. Bu orzu yillar o'tgani sayin sayqallashib, aniq maqsadga aylandi. Axir aytishadi-ku, astoydil niyat qilsang, muroding hosil bo'ladi, deb...

Yunusobod tumanidagi 274-maktab (avvalgi 27-maktab)ni tamomlab, Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutiga o'qishga kirdim. Oliyog'ni muvaffaqiyatli tugatib, o'zim o'qigan maktabda ish faoliyatimni boshladim. 28 yil davomida o'quvchilarga nemis va ingliz tillaridan saboq berdim. Shogirdlarim umrimning mazmuniga aylandi. Hayotning turli sinovlariga duch keldim, past-balandini ko'rdim. Hozirda men saboq bergan o'quvchilar turli sohalarida faoliyat yuritmoqdalar. Ko'cha-ko'yda yoki bayramlarda shogirdlarimning yo'qlashi ko'nglimni tog'dek ko'taradi. Umrim davomida o'rttirgan boyligim, hayotdan topganlarim o'quvchilarimdir.

Bularning barchasi Siz tufayli, aziz birinchi Ustozim!

Oradan shuncha yillar o'tsa-da, porloq xotirangizni qalbimizda ardoqlaymiz, mehr va ehtirom bilan yodga olamiz.

Gulchehra KARIMOVA,
faxriy ustoz

Bu hayotiy haqiqatni juda yaxshi bilasiz. Ustozdek aziz zotga sira yolg'on so'z aytgiz kelmaydi, ularni ranjitishni ham istamaymiz, to'g'rimi?

USTOZNI ALDAB BO'LMAYDI

Ammo bugun bayram bahona o'zingizga bir savol bering. Siz hech ustozingizni aldaganmisiz? Javobingiz ijobiy bo'lsa, qanday yaxshi! Lekin bir marta bo'lsa ham ustozga yolg'on gapirishimga to'g'ri kelgan, deya afsus chekayotgan bo'lsangiz, keling, bugun xatolarimizni to'g'rilaymiz! O'z-o'zimizga boshqa bu odatni takrorlamaslikka so'z beramiz. Bunda esa sizga quyidagi voqea saboq bo'lsin...

O'quvchilik davrimda barcha ustozlarimni juda yaxshi ko'radim. Biror o'quvchi ularni ranjitsa, chiday olmasdim. Bir kuni rus tili darsida ustoz uy vazifasini bajarmay kelgan to'polonchi Dilshodni doskaga chaqirganlarida, u «tomosha» ko'rsata boshladi. «Voy, voy, ustoz, mazam qochyapti, zo'rg'a o'tirgandim, hozir javob bera olmayman, maktab hamshirasiga uchrab kelay», deya sinf xonadan chiqib ketdi. Ustozim esa Dilshodning tobi yo'qligini nega menga aytmadinglar, nima uchun yozdam bermay o'tiribsizlar, deya kuyinib ketdilar. Shunda ustozga haqiqatni aytmoqchi bo'layotganimni sezgan sinfdoshlarim «Jim, endi indama, sinfimizdan yolg'onchi chiqmasin», deya shivirlashdi. Men esa onamiz kabi bezovtalanayotgan muallimamizga juda achindim. Baxtinga tezroq qo'ng'iroq chalindi-yu, sinfdoshlarim tanaffusga chiqib ketishdi. Men esa o'qituvchimning yonlariga borib:

– Ustoz, Dilshod kasal emas, xavotir olmang, uy vazifasini tayyorlamay kelganiga bahona qildi. Sizga aytay desam, sinfdoshlarim qo'yishmadi. Kechiring, faqat siz sira xafa bo'lmang! – dedim.

– Rahmat senga, uning betobligi yolg'on bo'lsa, xursandman. Sizlar kasal bo'lmasangiz bo'ldi. Xudoga shukur, xotirjam bo'ldim, – dedilar ustozim yengil tortib...

Keyinchalik sinfdoshlarimga ham qilgan ishlarining xatoligini, ustozni aldash yaxshi emaslugini tushuntira oldim. Dilshodga esa o'qituvchimiz uni o'yab qancha kuyinganlarini aytib berdim. U ham ustozdan kechirim so'radi.

Ko'rdingizmi, o'quvchilar, biz ko'pincha bahona qilish barobarida goh bilib, goh bilmay ustozlarga yolg'on so'zlab qo'yamiz. Ammo bu bilan ularni tashvishga qo'yayotganimiz, dillarini og'ritayotganimizni sezmay qolamiz. Ammo bugun bu haqda bir zum o'yab ko'ring va xulosa tarzida qalbingizdan kelayotgan sadoga quloq tuting:

«Ustoz, bizni kechiring, sizni endi hech qachon ranjitmaymiz. Sizday ulug' zotga sira yolg'on so'zlamaymiz! Siz faqat hurmatga, samimiy munosabatga loyiqsiz. Zero, yolg'on dan ko'ra, samimiy tarzda aytdan har qanday so'zimizga siz ochiq chehra bilan javob bergansiz, bizni hamisha kechirib yashaysiz-a, aziz ustozim!»

QIZLARXON

KIRIB YURING YUZLARGA



Harflarni tanigan,
Alifbeni o'qitgan,
Qo'limga qalam tutgan,
Siz birinchi ustozim.



Boshimizda parvona,
Maktab ichra yagona,
Ham muallim, ham ona,
Siz birinchi ustozim.

Quyosh kabi porlagan,
Maktab sari chorlagan,
Odob sari undagan,
Siz birinchi ustozim.

Xato qilsak, tuzatgan,
Yordam qo'lin uzatgan,
Mehr bilan kuzatgan,
Siz birinchi ustozim.

Biz besh olsak, quvongan,
Dangasa bo'lmang, degan,
Bizga mehrini bergan,
Siz birinchi ustozim.



Bilim bergan bizlarga,
Qancha o'g'il-qizlarga,
Kirib yuring yuzlarga,
Siz birinchi ustozim!

O'g'iloy **XOJIMATOVA**,
Toshkent shahar,
Uchtepa tumanidagi
62-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

M.MUHAMMADJONOVA
chizgan rasm



OTADEK ULUG'IM

Ilm bulog'ingizdan chanqoq bosdik biz,
Quyosh yanglig' mehringiz taftida erib.
Shuncha o'g'lon, shuncha qizni ulg' aytirdingiz
Goh shirin, goh achchiq tanbehlar berib.

Bizni o'quvchimas, bolam, degansiz,
Hayot sabog'ini bergan muallim.
Otakek ulug'im, qarshingizda men,
Boshim yerga tekkuncha qilaman ta'zim.

Yulduz **KARIMOVA**,
Jizzax viloyati, Forish qishloq xo'jalik
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Yayra **SADULLAYEVA**

BIZ-DA, YOZUVCHI BO'LADIGAN

O'zi bor-yo'g'i yettinchi sinfdamiz-u, o'rtog'im nuqul boshini qotiradi. Ikki gapning birida, katta bo'lsam unday bo'laman, katta bo'lsam bunday bo'laman, deyaveradi. Zo'r mashinalarni ko'rganida, shofyor bo'lgisi kelib qoladi. Ertasiga birdan oshpaz bo'lgisi keladi. O'sha kuni maktab oshpazi shirin kotlet yoki unga yoqadigan kartoshkali pirojka pishirgan bo'ladi-da. Rustam Qosimjonov chempion bo'lganda-ku, shaxmatchi bo'lishni orzu qilib qolgandi. Yaxshi kitob o'qib qoluvdi-ki, birdan yozuvchi bo'lgisi keldi-qoldi. Endi shu yerda to'xtang, og'ayni, dedim unga, ko'pam besh qo'lingizni og'zingizga tiqavermang. Yozuvchilikni bizga qo'yib bering. Umringizda to'rt qator she'r yozganmisiz? Yozmagansiz! Yo ikkita qofiyadosh so'zni hech kimning yordamisiz topganmisiz? Topmagansiz! Yo inshomni tekshirib bering, deganimizda, bitta bo'lsayam xato topganmisiz? Beshinchida o'qiydigan singlingiz qiqir-qiqir kula-kula, beshta xato topgan. Mana biz, og'ayni, yozuvchi bo'lamiz, deb orzu qilsak yarashadi. Negaki, unchamuncha yozib turamiz. Avvaliga shoirlarning she'rlarini «She'r daftarimizga ko'chirib mashq qilib yurdik. Roppa-rosa bir hafta avval sakkiz qatorli ilk she'rimizni yozdik. G'oz haqida.

Ochig'ini aytсам, g'ozni bir vaqtlar oromgohga borganda ko'rganman. Lekin yozuvchi bichib-to'qa bilishi kerak, deb o'ylayman. She'rimni darhol tahririyatga jo'natdim. Axir yozganimizni hamma o'qisinda. Bo'lmasa yozuvchi kim uchun yozadi? Qolaversa, ikkita kutubxonaga a'zoman. Yozuvchi bo'laman, degan odam



kutubxona bilan bog'lanib turishi kerak-da. Yo noto'g'rimi? Yana o'zimizning shaxsiy kutubxonamiz ham bor. Yangi chiqqan kitob borki, dadamiz yoki oyijonimiz olib kelib beradilar. Ba'zan o'zimiz arzonrog'i bo'lsa, olvolamiz. Lekin hech kimning qo'lini shaxsiy kitoblarimizga tekkizmayapmiz. Urinib qolmasin,

deymiz-da. Nega jilmayasiz? Kitoblarni asarasak, o'zimizga ham, jamiyatga ham foyda. Bir kun kelib taniqli yozuvchi bo'ldik, deylik. Uyimizga turli yurtlardan katta-katta yozuvchilar kelib turadimi? Turadi. Shunda uyimizda kitob bo'lmasa yo bo'lgandayam yirtiq-chirtiq bo'lsa?..

Yana bilasizmi nega yozuvchi bo'lgimiz keladi? Yozuvchining obro'si zo'r. Yozgan kitobini odamlar qo'ldan qo'ymay o'qiydi. D a m

kuladi, dam yig'laydi. Qani aytg'ing-chi, yozuvchi Hoshimjon Ro'ziyevni yozganda, nimani o'ylagan? Bizni kuldirishni! U yozganda qiynalganmi? Sirayam,

Hoshimjon miyasiga joylashvolib, «Mana bunday yozing», deb aytib turgan. Yozuvchi amaki Hoshimjonning aytganlarini yozaverganlar-yozaverganlar. Oxiri yozib charchaganlarida, Hoshimjon: «Shu yerda to'xtata qoling, o'zim ham uylanadigan yigit bo'lib qoldim», degan.

Yozuvchilikning yana bir zo'r tomoni bor emish. Buni yaqinda eshitib qoldim. Yozganingga gonorar, ya'ni qalam haqi berisharmish. Agar

bizning yozganga haq berishsa, nuqul futbol o'yiniga tushardik yo shokoladli muzqaymoq yerdik...

Hm... Sizga alam qilyaptimi? To'garakda bittayam yozganingizni o'qishmaganimish. Biz-chi, biz sizga o'xshab atak-chechak qilib yozib o'tirmaymiz. «Yozganimiz haqida fikringizni aytg'ing, birinchi qatorim besh bo'g'inli, ikkinchisi yetti bo'g'inli chiqib qolipti. Nima qilay?» deb yurmamiz. To'g'ridan to'g'ri tahririyat bilan aloqa qilamiz. Nima, ikkita so'zni bir-biriga moslab yozolmaymizmi? Biz-a?! Qani bo'lmasa eshiting-chi: «Boshiga sol! Qo'lingni ol!». Bu nima? Ha... jimsiza-a? Shunaqa! Biz katta bo'lsak, yozuvchi bo'lamiz, deb ahd qildikmi, bo'lamiz! She'r yozadigan yozuvchi bo'lamiz.

Iye, tahririyatdan xat kelibdimi? Darrov-a? Hoynahoy she'rim haqida fikr bildirishga ojizlik qilib, birorta zo'rroq shoirga berishgan bo'lsa kerak-a? «Iqtidoringizga qoyilmiz! She'rlaringizni to'plab, kitobcha chiqarish kerak. Yashavoring! Hurmat bilan ustozingiz. Imzo». Buyog'ini nima qildik?! O'zi bor-yo'g'i bittagina she'r yozdik-ku... Hechqisi yo'q. Bir yozishga tushsak, shig'illatvoramiz. So'zlar topolmay qolsak, kitoblar liqliq... Shunday xayollar bilan xatni ochamiz, o'qiyamiz. Tavba, tahririyatdagilar ham yanglisharkan-da, a? Bir adashimga yozilgan xatni menga jo'natishibdi. Buni qarang, she'rimizning sarlavhasiyam bir xil-a?... «She'r yozib ovora bo'lib yurma, sendan shoir chiqmaydi. Kuchingni boshqa sohada sina!». Mayli, adashimga boshqa javob yozib yuborishar. Biz esa o'zimizni yozuvchilikda sinaymiz...

MURABBIYLAR BOR EKAN...

Keyingi yillarda mamlakatimizda qizlarni ommaviy tarzda sportga jalb etish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratildi. Buning samarasi o'laroq qizlarimiz orasidan ko'plab chempionlar, sport murabbiyalari yetishib chiqmoqda.



Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanida tug'ilib o'sgan Zilola Mamataliyeva bolaligidan sport murabbiyasi bo'lishni niyat qilardi. 2010-yilda tumandagi Industrial Pedagogika kollejini tamomlagach, qo'rg'ontepalik yoshlar uchun sport to'garagini tashkil qildi. Ayni paytda uning qo'l ostida 50 nafardan ziyod yoshlar sportning ushu turi bilan muntazam shug'ullanmoqdalar.

To'garakka bolalar 3-4 yoshdan qabul qilinadi. Bu bejiz emas. Boisi, aynan shu yoshda bolaning irodasi shakllanadi.

- Olti yoshimdan ushuning gimnastika yo'nalishi - taolu bilan shug'ullanaman. Bugun murabbiya bo'lib, shogirdlarimga «Sport shunchaki shug'ullanib, so'ngra tashlab ketiladigan narsa emas. Agar sen unga mehr qo'yib, o'z ustingda ishlasang, qiyinchiliklardan qochmasang, yuksak marralarni zabt etasan», deya doim uqtirib kelaman, - deydi uch karra O'zbekiston chempioni va kubogi sohibasi Zilola Mamataliyeva.

Zilola yosh bo'lishiga qaramay, har bir shogirdi qalbida sportga mehr uyg'otish bilan birga, ularda to'g'riso'zlik, mehr-oqibat, qat'iyatlilik

kabi xislatlarni shakllantirishga e'tibor qaratadi. Tartib-intizom va ozodalikka rioya etishni talab qiladi. Mashg'ulotlar haftasiga to'rt marotaba tashkil etiladi. Har shanba kuni tarbiyaviy soat o'tkaziladi. Chunki malakali sportchi tayyorlashda ma'naviy-ruhiy tarbiya ham muhim o'rin tutadi.

Yosh murabbiyaning o'z ishiga bunday yondashuvi qo'rg'ontepalik sportchilarning muvaffaqiyatlarida muhim omil bo'lmoqda. Uning

shogirdlari - Umarjon Karimov, Muhammadqodir G'aniyev, Behzod Tursunov, Umidjon G'anijonov, Shahzod Soyibjonov, Durdona Sobirova, Munisa Saidqulova kabi sportchi yigit-qizlar mamlakatimiz chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

- Bir necha yildan buyon ustozim Zilola opa qo'l ostida sportning ushu turi bilan shug'ullanib kelaman. O'tgan vaqt oralig'ida tuman, viloyat va respublika musobaqalarida qatnashib, sovrindorlar qatoridan joy oldim. Qolaversa, mashg'ulotlarga qatnay boshlaganimdan buyon maktabda darslarni o'zlashtirishim ham ancha yaxshilandi. Hozirda ustozlarimning o'gitlariga amal qilib, a'lo baholarga o'qimoqdaman, - deydi Muhammadqodir G'aniyev.

Umid qilamizki, tajribali murabbiylarimiz, Zilola Mamataliyeva kabi talabchan murabbiylarimiz bor ekan, yurtimizdan ko'plab chempionlar yetishib chiqaveradi.

Sa'dullo TURSINOV



Tailand poytaxti Bangkok shahrida gandbol bo'yicha 17 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida yakunlangan Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

QIZLARIMIZ JAHON CHEMPIONATIDA

Beshinchi bor tashkil etilgan nufuzli musobaqada qit'amizning eng kuchli yetti terma jamoasi o'zaro raqobatlashdi. Gandbolchilarimiz Eron vakillarini 33:24 va Xitoy terma jamoasini 33:29 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Ushbu ikki g'alaba ham yurtlarimizning kuchli to'rtlikdan joy olishini ta'minladi.

Osiyo chempionati 2014-yili Makedoniya mezbonlik qiladigan jahon chempionatiga saralash turniri vazifasini o'tadi. Xalqaro gandbol federatsiyasi qaroriga ko'ra, qit'amiz vakillariga jahon chempionati uchun to'rtta yo'llanma ajratilgan.

Kelasi yili jahon chempionatida Osiyo qit'asi sharafini O'zbekiston, Janubiy Koreya, Yaponiya va Qozog'iston terma jamoalari himoya qiladi.

MOHIR TAEKVANDOCHILAR SARALANDI

Poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida bolalar, o'smirlar, yoshlar, xotin-qizlar va kattalar o'rtasida taekvando (ITF) bo'yicha «Mustaqillik kubogi» respublika turniri yakunlandi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan sport majmualari va seksiyalarida 60 ming nafardan ziyod o'g'il-qiz taekvando bilan muntazam shug'ullanmoqda.

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Taekvando (ITF) milliy assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan musobaqada mamlakatimizning barcha hududlaridan 500 nafarga yaqin sportchi yakkama-yakka bellashuv va kompleks mashq bajarish bo'yicha o'z mahoratini namoyish etdi.

Mazkur turnir mamlakatimiz taekvandochilari orasidan eng mahoratlarini tanlab olish, ularni xalqaro miqyosdagi musobaqalarga bosqichma-bosqich tayyorlab borish maqsadida tashkil etildi.

«Mustaqillik kubogi» respublika turnirida Muhammadsharif Vaqqosov, Komronbek Tohirov, Hasan Inomjonov, Abdulaziz A'zamov, Ilyos Murodov, Zuhra Ergasheva, Luiza Nazarova singari yosh taekvandochilar g'olib va sovrindorlar safidan joy oldi.

Musobaqada umumjamoa hisobida poytaxtlik sportchilar birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Toshkent viloyati jamoasi ikkinchi, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari vakillari uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Shoh MUHAMMAD



VATAN HAQIDA SO'Z

«Vatan haqida so'z» ruknimizda gazetamizning doimiy muxlisi, poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 72-maktab o'quvchisi Mahbuba Abdulazizova o'z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etdi.

YOQIMLI SO'Z

Dolzarb mavzudagi maqola va xabarlar bilan gazetamizning mazmun-mundarijasini boyitishga hissa qo'shib kelayotgan bu qizimiz e'lon qilinadigan barcha tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaqinda yakunlangan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika tanlovida ham o'z ijodiy ishi bilan qatnashib, insholar yo'nalishi bo'yicha faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Yosh ijodkorni erishayotgan yutuqlari bilan chin dildan tabriklar ekanimiz, uning Vatan haqidagi fikrlarini e'tiboringizga havola qilamiz.

«Vatan o'zi nima? Bu so'z nega bunchalar yoqimli, misli orombaxsh kuyday, onam tandirda yopgan non isiday, quyosh nuriday. Ona suti bilan go'dak taniga kirgan jonmi u?! Ilk bor quloqlarim ostida yangragan kuymi?! Vatan dunyodagi eng ulug' zotga, ya'ni onalarga qiyoslangan. Bu ikki so'z bir-biriga chambarchas bog'liq. Ikkisi ham biz uchun juda qadri...»

Ha, chindan ham bu muqaddas so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bejizga tug'ilib o'sgan yurtimizga biz Ona Vatan deya ta'rif bermaymiz-da.

Z. MAMATQULOVA olgan suratlari

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 12-maktabning 9-sinf o'quvchisi Yulduz Abdurashidova bilan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika tanlovining yakuniy bosqichida uchrashgan edik. U mazkur tanlovining insholar yo'nalishida uchinchi o'rinni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini oqladi. Iqtidorli tengdoshingiz kecha va bugun misolida Vatan haqida so'z aytishga harakat qildi. Kechagi kunini unutmagan, bugungi tinch va osoyishta kunlariga shukronalar aytgan insonning ertasi porloq bo'lishini ta'kidladi.

YULDUZXONNING O'YLARI

– Biroq, ayrim tengdoshlarimning atrofidagi voqea-hodisalarga bepisand bo'lib, boshini ko'tarmasdan telefon titkilashlarini kuzataman yoki internet klublarda jangari o'yinlar o'yinlariga guvoh bo'laman. Shunda qadri vaqtlari besamar o'tayotganidan xafa bo'laman, achinaman. Ularga qarata shunday degim keladi: Bugun biz yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalansakka o'z orzularimizga, ko'zlagan maqsadimizga, albatta, erishamiz.

Aziz o'quvchilar, qiziltepalik tengdoshingiz Yulduzning fikrlari sizning ham shioringizga aylanishiga va Mustaqil O'zbekistonimizga munosib farzand bo'lishingizga ishonamiz.

Feruz SOYIBJON qizi

«TA'LIM-TARBIYA FIDOYILARI» KROSSVORDI

Javoblarni shakl harflaridagi kataklarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yozing.

- Zanjir holda: 1. Dars beruvchi ustoz.
2. «Olti tilli lug'at» tuzgan o'zbek ma'rifatparvar shoiri. 3. Ustoz rahbarligida

- bilim, hunar o'rganish guruhi. 4. Alisher Navoiy yoshligidan aziz do'st deb ta'riflagan manba. 5. Dramaturgiyamiz ustози, «Padarkush» asari muallifi. 6. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, ilk «Alifbe»

- darligi muallifi. 7. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri. 8. Tinish belgisi. 9. O'tmishda ajdodlarimiz kitobni qo'yib o'qishda foydalangan jihoz. 13. Shoiralarga ustozlik qilgan o'zbek g'azalnavis shoirasi. 14. Shoh

- Iskandarning ustози, Aristotelning sharqdagi nomi. 15. O'zbek astronom olimi, temuriy zoda hukmdor. 16. O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurti. 17. O'tilgan darslar va o'zlashtirish ko'rsatkichlari qayd etib boriladigan daftar. 18. O'zbek alifbosida qo'llanilayotgan yozuv. 19. Estrada san'atimiz ustози, O'zbekiston xalq artisti. 20. Eng aziz diyor. 21. Abu Ali ibn Sinoga ilk saboqni bergan ustoz, zamonasining bilimdoni.

Eniga: 10. Alisher Navoiyning ustози, mumtoz mutafakkir shoir.

Bo'yiga: 11. Umumiy ta'lim va tarbiya maskani. 12. O'rta asr qomusiy olimi, birinchi globusni ixtiro qilgan vatandoshimiz.

MUAMMONOMA

Kalit so'zlar: 1. «Guliston», «Bo'ston» asarlarini yozib qoldirgan mumtoz, mutafakkir shoir -16,1,17,2,3,11. 10,14,13,5,9,3,11.

2. O'zbek ma'rifatparvar shoirasi -16,1,7,1,13,15,5,6,4.

3. So'zlashuv vositasi -8,3,12.

Endi kalit so'zlarining javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarda ifodalangan muammonomani hal eting. Bunda ulardan mumtoz xamsanavis shoir Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub ikki misra hikmatni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan O'RIPOV



Bosh muharrir
Feruz JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Musahhib
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftanaviy dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 47425
Buyurtma N: J 8158

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.